

WOMEN'S EDUCATION IN INDIA DURING BRITISH COLONIALISM: REFORMS AND CONSEQUENCES**Kurolova Umida Maxmud qizi**

Tashkent State University of Oriental Studies

Annotation: In this article, the formation and development of women's education in India under the rule of Great Britain during the early years of colonialism, as well as the reforms implemented in this field, are analyzed. The study highlights women's illiteracy, religious and social restrictions, and the influence of missionaries, local reformers, and government policies. Furthermore, the article characterizes the significance and impact of these reforms on the subsequent development of Indian society.

Key words: India, education system, reformation, missionaries, political and social restrictions.

BUYUK BRITANIYA MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA HINDISTONDA AYOLLAR TA'LIMI: ISLOHOTLAR VA OQIBATLAR**Kurolova Umida Maxmud qizi**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk Britaniya hukmronligi ostida bo'lgan Hindistonda mustamlakachilikning dastlabki yillarida ayollar ta'limining shakllanishi va rivojlanishi, ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Ayollar savodsizligi, diniy va ijtimoiy cheklovlar, shuningdek, missionerlar, mahalliy islohotchilar va hukumat siyosatining ta'siri yoritiladi. Shuningdek, ushbu davrda amalga oshirilgan islohotlar keyingi davrda Hindiston jamiyatining rivojida o'rni va ahamiyati qay darajada bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

Kalit so'zlar: Hindiston, ta'lim tizimi, islohot, missionerlar, diniy va ijtimoiy cheklovlar.

Buyuk Britaniya bosqinidan oldingi davrda, xususan, 18-asrning boshlarida Hindistonda ayollar ta'limi va ularning bilim olish darajasi va imkoniyatlari havas qilarli darajada emas edi. Ushbu davr jamiyatda erkaklarning qat'iy nazorati bilan xarakterlanganligi sababli ayollarning ta'lim olishi va o'qishi imkonsiz hisoblangan, jamiyatda va ijtimoiy hayotda ayollarning o'rni eng past darajada bo'lgan. Ayollar bilim olishi uchun maktab yoki rasmiy ta'lim muassasalari mavjud bo'lmagan. Qizlar o'rtasida erta turmush qurish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli ham ularning bilim olishi amalda imkonsiz edi. Yuqoridagi omillar sababli ayollar savodxonligi juda past – 1%dan kam darajada bo'lgan. Bunga shuningdek, hind jamiyatida mavjud bo'lgan ijtimoiy va diniy to'siqlar ham sabab bo'lgan. Ya'ni, hindu jamiyatlarida ayollarga sanskrit tilida yozilgan matnlarni o'qitish qati'yan man etilgan. Musulmon jamiyatlarida esa ayollar faqat Qur'on o'qish va yod olish bilan

cheklangan, ularga dunyoviy fanlarni o'rganishga ruxsat berilmagan. Ammo, ayollar va qizlar orasida ta'lim olishni xohlovchilar ham bo'lgan, lekin ular jamiyatdagi ta'sir va siquvlar ostida ko'plab tanqidlarga uchragan. Qizlarning ta'limi diniy yoki uy sharoitida tashkil qilingan sodda shaklga ega bo'lgan holda faqatgina diniy matnlarni yodlash bilan cheklangan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Britaniya mustamlakachiligi arafasida Hindistonda bolalar nikohi, pardah tizimi (ayollarni faqat uy ro'zg'or tutish bilan cheklash) va sati marosimlari (eri vafot etganida ayollarni ham tiriklayin o'ldirish) kabi illatlar mavjud bo'lganligi tufayli ayollar savodsizligi jamiyat uchun oddiy holga aylangan edi.

Britaniya Hindistonni o'z mustamlakasiga aylantirishni boshlagan davrda ham

vaziyat o'zgarmagan edi. Hind jamiyatida chuqur patriarxal munosabatlar ildiz otgan bo'lib, ya'ni ijtimoiy va kundalik hayotda erkaklarning to'laqonli hukmronligi o'rnatilgan edi. Shu sababli, mustamlakchalikning dastlabki yillarida ham ayollarning asosiy ishlari bola tarbiyasi va uy ro'zg'or yumushlari bo'lib qolgan edi. Ayollar uchun ta'lim olish jamiyatda zarur va foydali emas degan fikr hali ham mavjud edi. Ushbu davrda, shahar elitasida o'qish va yozishni biladigan ayollar kam sonli bo'lib, qishloq ayollari butunlay savodsiz edi.

Buyuk Britaniya Hindistonni bosib olishni boshlagan davr – 1757-yildan (Bengaliya inglizlar tomonidan bosib olingan) to 19 asr boshlarigacha, mustamlakachilik tashabbuskori bo'lgan Ost India kompaniyasi mamlakatdagi ta'lim masalalariga jiddiy e'tibor qaratmagan. Bunga kompaniyaning asosan iqtisodiy sohaga asosiy e'tibor qaratganligi sabab bo'lgan. O'z o'zidan ma'lumki, ta'lim sohasida deyarli islohot amalga oshirilmagan bir vaqtda, ayollar ta'limi haqida hech qanday e'tibor va munosabat bildirilmagan.

Buyuk Britaniyaning Hindistondagi ta'lim tizimiga, xususan, ayollar ta'lim

tizimiga aralashuvi va qiziqish bildirishi 19 asr o'rtalaridan boshlandi. Bu harakatda asosan xristian missionerlari o'zlarining missionerlik tashkilotlari bilan faol bo'lgan. Ular Hindistonda diniy targ'ibot bilan bir qatorda, ijtimoiy islohotlar, jumladan ayollar ta'limini rivojlantirish ishlarini ham olib bordilar. Ular dastlab o'z faoliyatini Hindistonda ayollar uchun maktablar tashkil qilishdan boshlagan. Ushbu maktablar o'zining dastlabki faoliyatida faqatgina diniy masalalar uchun xizmat qilgan bo'lsa-da, ayollarga o'qish, yozish, tikuvchilik, gigiyena va boshqa amaliy fanlarni o'qitishni ham maqsad qilgan edi. 1819-yilda Hindistonda Serampore missionerlari tomonidan tashkil qilingan ayollar maktabi mamlakatda ayollar uchun mo'ljallangan ilk ta'lim maskanlaridan biri edi. 1820-1840-yillar oralig'ida Kalkutta, Madras va Bombay shaharlarida birinchi qizlar maktablari tashkil qilindi. Bu maktablarda o'qitiladigan fanlar asosan Bibliya, ingliz tili, o'qish, yozish, gigiyena va tikuvchilik kabi amaliy mashg'ulotlar bilan cheklangan edi. Shunga qaramay missionerlik maktablari Hindistonda ayollar savodxonligining boshlanishi muhim rol o'ynadi. Aynan shu davrdan boshlab Hindistonda ayollarni o'qitish g'oyalariga nisbatan ijobiy qarashlar shakllandi. Ushbu maktablar Mary Carpenter, Ann Duff, Hannah Marshman kabi missioner ayollar harakati va tashabbusi bilan tashkil qilingan edi. Keyinchalik ular hind ayollarining ta'lim olishi va jamiyatda o'z o'rinlarini egallashida katta hissalarini qo'shganlar.

Xristian missionerlarining sa'y harakatlaridan keyin mamlakatda mahalliy aholi orasidan ham islohotchilar chiqa boshladi. Ular hind ziyolilari bilan birgalikda ayollar ta'limini rivojlantirish

g'oyasini ilgari surdi. Ulardan biri Raja Ram Mohan Roy (1772-1833) "Brahmo Samaj" harakati orqali ayollar huquqlarini himoya qildi. "Sati" marosimini bekor qilishga va ayollarni ta'lim olishga undadi. Uning fikricha ayollarning zamonaviy bilim olishini jamiyat taraqqiyoti uchun zarur deb hisoblagan. Aynan "Sati" marosimi Raja Ram Mohan Roy tashabbusi bilan Bentnik davrida, 1829-yilda bekor qilingan.

2. Ishvar Chandra Vidyasagar (1820-1891) qizlar maktablarini tashkil

etishning asosiy tashabbuskorlaridan biri edi. U sanskrit maktablariga ayollarni qabul qilishni targ'ib qildi.

3. Jyotirao Phule va Savitribai Phule – 1848-yilda Pune shahrida Hindistondagi birinchi qizlar maktabini ochgan. Savitribai Phule Hindistonning birinchi ayol o'qituvchisi sifatida tarixda qolgan.

Ularning ushbu harakatlari Hindistonda ayollar ta'limini nafaqat missionerlar

balki, mahalliy hind islohotchilari ham qo'llab-quvvatlaganligini ko'rsatdi.

Shuningdek, hind ayollarining ta'lim olish imkoniyatini kengaytirishda Britaniya hukumati tomonidan amalga oshirilgan siyosiy va rasmiy islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etdi. 1854-yilda Britaniya hukumati tomonidan qabul qilingan Wood's Despatch Hindiston ta'lim siyosatida tub burilish yasadi. "Hindiston ta'limining konstitutsiyasi" deb atalgan bu hujjatda birinchi marta ayollar ta'limi davlat siyosati darajasida tilga olindi. Hujjatda "Ayollarni ma'rifatli qilish millatning ma'naviy yuksalishi uchun zarurdir," – degan tamoyil ilgari surilgan. Bu hujjat ta'limni hukumat nazoratiga olish, mahalliy tillarda o'qitish va ayollar uchun maxsus grantlar ajratishni ko'zda tutgan. Shuningdek, o'qituvchi tayyorlash markazlari tashkil etilishi, ayollar uchun maktablar ochilishi va darsliklar yaratish masalalari ham aynan shu hujjatda belgilab berilgan. Shundan so'ng ayollar ta'limi asta-sekin davlat siyosatining bir qismiga aylandi. Bombay, Madras, Kalkutta kabi yirik shaharlarda ayollar uchun kollej va seminariyalar ochila boshladi. 1882-yilda tashkil qilingan Hunter Kommisiyasi ham aynan shunday islohotlardan biri edi. Ushbu komissiya ayollar ta'limini kengaytirish bo'yicha aniq tavsiyalar berdi. Qizlar uchun alohida maktablar ochish, o'qituvchilarni ayollar orasidan tayyorlash va bepul ta'lim joriy etish taklif qilindi.

19-asr oxiriga kelib Hindistonda ayollar ta'limi asta-sekin rivojlana boshladi. 1850-yillarda atigi bir necha yuz nafar ayol o'qigan bo'lsa, 1900-yillarga kelib bu raqam bir necha o'n minglab bo'lgan. Shuningdek, Ayollar orasida savodxonlik darajasi oshdi; Ayol o'qituvchilar paydo bo'ldi; Tibbiyot, hamshiralik, adabiyot sohalarida faol ayollar yetishib chiqdi; Jamiyatda ayollar o'rni haqida yangi qarashlar shakllandi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Hindistonda ayollar uchun bir qator muhim o'quv yurtlari tashkil etildi. Jumladan:

Bethune College (Kalkutta, 1849) — Hindistondagi birinchi ayollar kolleji;

Victoria School (Bombay, 1875);

Lady Hardinge Medical College (Delli, 1916) — ayollar uchun tibbiyot kolleji.

Bu davrda ayollar orasida savodxonlik darajasi oshgan bo'lsa-da, ta'lim asosan yuqori tabaqaga mansub oilalarga tegishli edi. Qishloq ayollarining ta'lim olish imkoniyati cheklanganligicha qolgan.

Britaniya hukumati ayollar ta'limini targ'ib qilgan bo'lsa-da, bu siyosatning ichki mohiyati ikkiyoqlama edi. Bir tomondan, ular ayollarni o'qitishni "sivilizatsiya keltirish" vositasi sifatida ko'rsatgan bo'lsa, boshqa tomondan, bu orqali Hind jamiyatida g'arb qadriyatlarini singdirish va mustamlakachilik mafkurasini mustahkamlashga harakat qilgan. Ayollar ta'limi Britaniya nazorati ostida bo'lib, ularning siyosiy yoki mustaqil fikrlash faoliyati cheklangan edi. Shunday bo'lsa-da, ta'lim ayollarga yangi ijtimoiy mavqe, o'zini anglash va milliy harakatlarda ishtirok etish imkonini berdi.

XX asr boshiga kelib, Hindistonda ayollar savodxonligi sezilarli darajada oshdi. Ayollar o'rtasida milliy ong, siyosiy faollik va mustaqillik g'oyalari kuchaya boshladi. Sarojini Naidu, Kamini Roy, Pandita Ramabai kabi ayollar milliy harakatlarda faol ishtirok etib, Hindiston ayollarining yangi avlodini shakllantirdilar. Shunday qilib, Britaniya mustamlakachiligi davrida yaratilgan ayollar ta'limi tizimi keyinchalik Hindiston mustaqilligidan so'ng ham ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Britaniya mustamlakachiligi davrida Hindistonda ayollar ta'limi murakkab, ammo barqaror rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Dastlab diniy va ijtimoiy to'siqlar tufayli cheklangan bo'lgan bu soha XIX asr o'rtalaridan boshlab missionerlar, mahalliy islohotchilar va hukumat siyosati ta'sirida shakllandi. Britaniya hukumati ayollar ta'limini targ'ib qilgan bo'lsa ham, bu siyosat ko'proq mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qilgan. Shu bilan birga, bu jarayon ayollarni jamiyat hayotiga qayta olib kirdi, savodxonlikni oshirdi va ularni milliy harakatlarga tayyorladi. Natijada, Hindistonda ayollar ta'limining rivoji nafaqat ijtimoiy islohot sifatida, balki mustamlaka merosining muhim qismi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Macaulay, T. B. (1835). Minute on Indian Education. London: British Parliamentary Papers.
2. Wood, C. (1854). Education Dispatch to India. London: Government of India Press.
3. Mani, L. (1989). Contentious Traditions: The Debate on Sati in Colonial India. University of California Press.
4. Chatterjee, P. (1993). The Nation and Its Fragments: Colonial and Postcolonial Histories. Princeton University Press.
5. Jayawardena, K. (1986). Feminism and Nationalism in the Third World. Zed Books.
6. Metcalf, T. R. (1995). Ideologies of the Raj. Cambridge University Press.

7. Viswanathan, G. (1989). *Masks of Conquest: Literary Study and British Rule in India*. Columbia University Press.
8. Forbes, G. (1996). *Women in Modern India*. Cambridge University Press.